

**RUS SHE'RIYATIDA SHARQ MOTIVLARI (SERGEY YESENIN
SHE'RIYATI MISOLIDA)**

Nafosat Xaydarova

Xalqaro innovatsion universitet talabasi

Ilmiy rahbar: Nurali Murodillayev, XIU o'qituvchisi

Annotatsiya: *Yesenin – fojiaviy shoir emas. Uning she'rlari – hayot madhiyalaridir. Madh etilgan hayot oldindan aytib bo'lmaydigan, afsuslarga limmolim, mashaqqatli bo'lishiga qaramay, go'zalligini saqlab qolgan. Bu bezori va janjalkash, abadiy bolakay va buyuk donishmand madhidir. Ushbu maqolada shoir she'riyatida uchrovchi sharq motivlari xususida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar : *“Fors taronalari”, ostona, pariruxsor, parizod, ona yurt.*

Abstract: *Yesenin is not a tragic poet. His poems are hymns of life. The praised life has preserved its beauty despite being unpredictable, full of regrets, and difficult. It is the hymn of the bully and the brawler, the eternal child and the great sage. This article talks about the oriental motifs found in the poet's poetry.*

Key words: *"Persian songs", astana, parirukhsar, parizad, motherland.*

Buyuk Rus shoiri hisoblanmish Sergey Yesenin 1895-yil 3-oktyabrda Rossiyaning qadim tarixiga ega Ryazan guberniyasiga qarashli Konstantinova qishlog'ida oddiy dehqon oilasida dunyoga keldi. Hozirgi kunga kelib bu qishloqqa Sergey Yesenin nomi berilgan. Sergeyning bolaligi oilasi davrasida emas, balki onasi tomonidan qarindoshlarining qo'lida o'tdi. Bunga sabab Sergeyning otasi kambag'al oddiy dehqon bo'lib, bolalar tarbiyasiga vaqt ajratolmas edi. Onasi esa o'qimishli, aqlli, ishbilarmon ayol bo'lgan. Shuning uchun ham Sergey bobosining oilasida tarbiya topdi.

Bo'lajak shoir besh yoshdan boshlab o'qishni o'rganadi, to'qqiz yoshidan esa xalq qo'shiqlariga o'xshatib she'rlar yoza boshlaydi. Sergeyda bu qobiliyatni uyg'otgan uning buvisi bo'ladi. Buvisi chaqqon ziyrak va o'qimishli ayol bo'lgani



uchun ko‘plab she‘rlar va qo‘shiqlarni nabiralariga aytib berardi. Shundan bo‘lsa kerak Sergey ham xalq qo‘shiqlariga o‘xshatib she‘rlar yoza boshladi. Yosh shoir qishloq muallimlari tayyorlaydigan maktabni tugatib Moskvaga bordi. U yerda og‘ir mehnat qildi. O‘z ustida ishlash maqsadida adabiy-musiqiy to‘garakka qatnasha boshladi. 19 yoshida she‘rlari jurnallarda bosilib chiqa boshladi va u tez oradi katta shoirlar va xalqning nazariga tushdi. 20 yoshida Petrogradga kelib mashhur rus shoiri Aleksandr Blok bilan tanishdi.

1916-yilda S.A.Yeseninning “Radunitsa” deb nomlangan birinchi she‘riy to‘plami chop etildi. 1918–1921- yillarda shoir dunyo bo‘ylab safar qildi. 1922–1923-yillari esa Yesenin taniqli Amerikalik raqqosa Aysedora Dunkan bilan tanishdi. U bilan birga Yevropa mamlakatlarida sayohat qilishdi. Germaniya, Fransiya, Belgiya, Italiya mamlakatlarini aylandi va to‘rt oy davomida AQSHda yashadi. Yesenin ijodini to‘xtatmay she‘rlar va dostonlar yozishdan to‘xtamadi. Uning “Moskva mayxonalari”, “Sho‘ro Rusi”, “Zamin darg‘asi”, “Singlimga xat”, “Onamga xat”, va “Anna Snegina” , “Qora odam” dostonlari kabi ijod qildi. Yesenin she‘riyat olamida ijodning maqsadini asarning mazmuniga mos kelishi shart bo‘lmagan obrazlarni o‘ylab topishda deb fikrlovchilar guruhida bo‘lgan.

1924–1925-yillarida Yesenin O‘rta Osiyo va Kavkazorti sayohatida bo‘lgan. Yesenin qisqa muddat bo‘lsa-da, Toshkent va Samarqand shaharlarida ijodiy faoliyat olib bordi. Yesenin sayohati davomida bu yerda yashab Sharq odamlarining hayot tarzidan sharqona ruhni his etib, shunchalik zavqlandiki, shoir “Fors taronalari” deb nomlangan she‘rlar turkumini yaratdi. Yesenin forsiy tildagi mumtoz she‘riyati bilan yaqindan tanishishni xohladi. Shoir Eronga borishga intildi. Afsuski, o‘sha paytda Rossiya va Eron munosabatlari yaxshi emas edi. Shunga qaramasdan, Yesenin u yerga borishni hukumatdan talab qiladi. Uni Bokuga yaqin qishloqlaridan biriga yuborishadi. Bir muddat shoir bu yerda yashab Sharqona hisni o‘zida his qiladi va she‘r yozishga kirishib ketadi. “Fors taronalari” she‘rlar turkumi yaraladi. Sharq she‘riyatida Allohga ishqni majozan yorga qiyoslab kuylash kuchli bo‘lganligi uchun Yesenin ham o‘z she‘rlarida Sharq go‘zaliga bag‘ishlangan ishqiy she‘rlar bitadi.



Lekin shoirlar tilida bu G'arb kishisining Sharqqa bo'lgan jo'shqin mehr-muhabbatni anglatardi.

Yesenin she'rlarining mohiyati shundaki, millati, dini, irqidan qat'iy nazar bu she'rlarni o'qigan kishining qalbida iliq tuyg'u, zavq, mehr va ezgulikka yetaklovchi tuyg'ular bor edi.

She'riyatni sevuvchi insonlarda hech qachon qarazli o'ylar bo'lmaydi degan gaplar rost. Yeseninning aksariyat she'rlarini O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov maromiga yetkazib tarjima qilgan. "Fors taronalari" ham shular jumlasidan.

Xurosonda bir darvoza bor,
Ostonasi gulga ko'milgan.
Unda yashar bir pari ruxsor,
Xurosonda bir darvoza bor.
Hayhot, uni ocholmadim man,
Qo'llarimda kuch ham yetarli,
Sochlarimdan oltin rang olgan.
Asir etdi meni ul pari,
Qo'lda garchi kuchim yetarli.
Ul eshikni ocholmadim man.
Mardligim ne ishq maydonida,
Ayting, kimga qilay sharhi g'am.
Sevmas bo'lsa Shahi jonidan,
Ul eshikni ocholmas bo'lsam,
Mardligim ne ishq maydonida.
Yana tushdi Rus sari yo'lim,
Eron sendan kutgummi hali,
Nahot seni boz ko'rmas bo'ldim.
Ona yurtga mehrim tufayli,
Yana tushdi Rus sari yo'lim.
Xayr endi xayr parizod,
Darbozangni ocholmasam-da,



Shirin g'aming birla umrbod,
Kuylab o'tay seni o'lkamda,
Xayr, endi xayr, parizod.

Bu she'rni shoir forsiy she'riyat ta'sirida va buyuk qalam egalari bo'lgan yurtini ko'rishni istab, unga intilib shu kayfiyatda yozgan. Bu she'rda rus shoiriga Xurosonga borish nasib qilmaganligi yaqqol ma'lum edi. (Xurosonning bir qismi hozirgi Eronga tegishli). Shunday bo'lsa-da, shoir o'zini Eronda yurgandek tasavvur qilgan.

She'r har biri besh misradan tashkil topgan va besh banddan iborat. Birinchi bandida lirik qahramon Xurosondagi bu darvozaning ostonasi gulga ko'milgani ichkarida bir pariruxsor yashashi, ammo uni ocholmay armonda ekanini ta'kidlaydi. Aslida esa u darvozani ochishga kuchi yetishini hatto "sochlaridan oltinrang olgan..."ligini, ya'ni uning sochlari sariq ul pari uni asir etganligini va o'zini yo'qotib quyganligini aytadi. Birinchi bandida "*Xurosonda bir darvoza bor*" misrasi ikki bor birinchi va to'rtinchi satrda ham takrorlangan. Ikkinchi bandida "*Qo'llarimda kuch ham yetarli*" misrasi "*Qo'lda garchi kuchim yetarli*" tarzida to'rtinchi satrda qayta qo'llangan. Shunday qilib, bu so'zlar takrorlash usulida bandlarning boshi va oxirida foydalangan. "*Mardligim ne ishq maydonida?*" Bu bandda e'tibor bergan bo'lsangiz, lirik qahramonning shoir go'zal Shahi ismli yorini ham qo'shib quygan. Shu tarzda misralar va bandlarga bir xil tarzda amal qilinadi, ya'ni she'riy qoidalar bo'yicha. "*Yana tushdi Rus sari yo'lim...*" Bu bandda lirik qahramon go'zal sevgilisini ko'rolmay, kutilmaganda qahramonning o'z yurtiga bo'lgan muhabbatini qarama-qarshi qo'yadi. Ona yurtga bo'lgan muhabbati tufayli yoriga uni endi qayta ko'rolmasligini aytadi. Oxirgi bandida lirik qahramon yorini ko'rolmay, u bilan xayoliy tarzda xayrlashadi va darvozasini ocholmay, yorini ko'rolmay xayrlasholmasa ham o'z vatanida umrbod go'zal haqida kuylab o'tishini ta'kidlaydi: "*Xayr endi xayr parizod*"

Ikkinchi bandida shoirning shunday misrasi mavjud: "*Sochlarimdan oltin rang olgan*" Bu satrni nega bunday degani shundaki, u o'zining qaysi millat vakili ekanligini kitobxonga eslatib o'tgan. Shuni takidlash kerakki, bu usulning o'zi ham



Sharq mumtoz she'riyatiga taqlidning bir ko'rinishi hisoblanadi. She'rda keltirilgan so'zlarga e'tibor bersak. Unda Ostona, pariruxsor, parizod, so'zlaridan shoir mahorat bilan foydalangan. Bu she'rning yana bir hayratlanarli joyi shundaki she'rda qofiyadan ham zo'r foydalanilgan va biror bir misrada qofiyasi buzilmagan. Shunday qilib shoir o'z she'rlarida Rus hayotini va Sharqona mavzularda ham mohirlik bilan qalam tebratgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Sergey Yesenin o'z davrining buyuk Rus shoirlaridan bir bo'lgan. Rus shoirlari ichida Aleksandr Pushkindan keyingi o'rinda turuvchi desak, adashmagan bo'lamiz. Sergey Yesenin 30 yil umr ko'rgan bo'lsa-da, kelajak avlod uchun uning she'rlari bir umrlik ijod mahsuli hisoblanadi. Adabiyot ahli orasida shoirlarning hayot yo'llari juda ajoyib. Chunki ko'plab shoirlar qishloqlarda tug'ilib, shaharlarda olamdan o'tishadi. Sergey Aleksandrovich Yeseninda ham xuddi shunday. Umri davomida ko'plab mamlakatlarning osmono'par binolari bo'lgan shaharlarida bo'lmasin, shoirning qalbida o'z yurti va ruhan o'z qishlog'ida yurgandek his qilardi. Buni shoirning yozgan she'rlaridan bilsak bo'ladi. Ona yurti va ona xalqiga bo'lgan yuksak muhabbati she'rlarida bevosita Ryazan o'lkasiga mehri orqali aks etganini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.L. Kazakov. Yesenin qanday yashagan. // Moskva, Badiiy adabiyot, 1991.
2. I. Erenburg. Yesenin o'limi // Moskva, Badiiy adabiyot, 1990.
3. I. Listsov. S. Yesenin o'ldirilishi. // Moskva, Yosh gvardiya 1990.
4. E.M. Xlystakov. Noma'lum S. Yesenin. // Moskva, Badiiy adabiyot, 1990.
5. S.A. Yesenin asarlari. // Moskva, Badiiy adabiyot, 1988.